



## THE ROLE OF THE DEMONSTRATION METHOD IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Rakhmonova Dilrabo Ibrahim qizi

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Faculty of Pedagogy and Exact Sciences, 3rd year student of primary education and sports education

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5175972>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> August 2021

Accepted: 05<sup>th</sup> August 2021

Online: 10<sup>th</sup> August 2021

### KEY WORDS

Method, demonstration method, pedagogical skills, visual aids.

### ABSTRACT

*This article discusses the importance of the demonstration method in improving the effectiveness of education, the use of visual aids in the organization of lessons, the views of pedagogical scientists on the demonstration method.*

## TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KO'RGAZMALILIK METODINING AHAMIYATI

Rahmonova Dilrabo Ibrohim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika va aniq fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi 3-bosqich talabasi.

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-avgust 2021

Ma'qullandi: 05-avgust 2021

Chop etildi: 10-avgust 2021

### KALIT SO'ZLAR

Metod, ko'rgazmalilik metodi, pedagogik mahorat, ko'rgazmali materiallar.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda ko'rgazmalilik metodining ahamiyati, darslarni tashkil qilishda ko'rgazmali materiallardan foydalanish, Pedagogik olimlarning ko'rgazmalilik metodi haqidagi fikrlari.*

Mustaqillik davlatimizda mamlakatning huquqiy va fuqarolik jamiyatning oldinga intilib borayotgan bir davrida ta'lim yo'nalishida, ilm, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyatga yutuqlarga erishdik. Mustaqillikdan keyin ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bu yutuqlarning ilk namunalaridan biri bo'ldi desak

mubolag'a bo'lmaydi. Haqiqatdan ham ta'limni tarbiyasiz olib borib bo'lmaydi. Buni 1-Prezidentimiz I.A.Karimov «Ta'limni tarbiyadan-tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi» deb bejiz aytmagan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda umuminsoniy va milliy fazilatlar shakllanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda dunyoqarashni rivojlantirish mumkin, aqliy, axloqiy, odob-



axloq, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologiya kabi tarbiya turlari o'quvchilar ongiga singdirilib boriladi. Tarbiya bilim berish birgalikda komil insonni tarbiyalashda xizmat qiladi, milliy g'oya, istiqlol ruhida tarbiyalanadi. Fanlarni o'qitishda ta'limning ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning bugungi kundagi dolzarbligi- bu ta'lim sohasidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hozirgi kunda bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ta'limning ko'rgazmalilik metodidan foydalanish dolzarb masala sababi ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Bu texnologiyada ko'rgazmalilikdan foydalanmaslikning iloji yo'q. Ko'rgazmali qurollardan foydalanishda to'g'ri tashkil qilish materiallardan o'z o'rnida foydalanishni o'rgatish ta'lim oldidagi dolzarb masalalar qatoriga kirmoqda. Shunga e'tibor qaratilgan holda ko'pgina amallar qilinmoqda. Ya'ni oliy ta'limda ham, o'rta maxsus ta'limda ham deyarli barcha ta'lim turlarida keng foydalanilmoqda. Buning uchun kerakli bo'lgan barcha qonun-qoidalar ishlab chiqilgan va barcha ta'lim muassasalari bu qonun-qoidaga bo'ysungan holda o'z ish faoliyatlarini yuritmoqda. Ta'lim-tarbiyada ta'limning metodlari qatorida ko'rgazmalilik metodidan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Sababi bu metod boshqa metod turlariga qaraganda ancha oson, qulay va o'quvchiga tushuntirishdan qiyinchiliklarning oldini olish oson. O'quvchilar mavzuni tushunib olishlari ham ancha qulayliklarni keltirib chiqaradi. Bu metodda o'qituvchi bayon qilayotgan mavzuni o'quvchi ko'rgazmali qurollar yordamida u paqida tinglashdan tashqari to'liqroq ma'lumotga ega bo'lib, uni ko'rib o'tiradi. Bu esa, o'quvchining bilim olishida katta samarali natijalarni keltirib chiqaradi. Bu metodning ahamiyatli tomoni yana shundaki, o'quvchi mavzuni

takrorlash jarayonida o'tilgan mavzudagi ko'rgazmali qurollarni eslash oson bo'lib, mavzuning takrorlab esga tushirishi ham oson bo'ladi. Ko'rgazmalilik metodidan foydalanishda o'qituvchidan katta mahorat va ijodiylik, tashabbuskorlik, diqqat e'tiborlilikni talab qiladi. Buni darsda foydalanishda esa, pedagogik mahorat asosiy rol o'ynaydi.

Fanlarni o'qitishda ta'limning ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning maqsadi-avvalo o'quvchilarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mavzularni oson va tez, hamda sifatli o'zlashtirishni ta'minlash, pedagoglarning mahoratini oshirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ta'lim-tarbiyaning har xilligini ta'minlash, ya'ni, noan'anaviy ta'lim tizimini yaratish, o'qituvchi va o'quvchi orasida do'stona munosabatni shakllantirish, o'quvchilarga ijodiy fikrlash, mustaqil ravishda o'zining bilimini, fikrini erkin bayon qilishga imkon yaratish kabilardan iborat. Bu kabi maqsadlarni amalga oshirishda har bir pedagog-o'qituvchi albatta «Ta'lim to'g'risidagi» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» dagi maqsadga, yo'nalishga asoslanadi. Shu asosda yuqoridagi maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan holda o'quvchilarga bilim, ta'lim-tarbiya beradi. Ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning oldiga, belgilangan maqsadlarini amalga oshirishda pedagogda bilim, ko'nikma va malakani talab qiladi. Ta'limda ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning vazifalari ham belgilar qo'yilgan. Ya'ni bu vazifalar avvalo, ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning maqsadini belgilab olish, metod uchun kerakli jihozlarni tanlash, o'tkazilish tartibini tuzish asosiy rejani tuzib olish, o'tkazilish tartibini oldindan o'quvchilarga tushuntirish, ko'rgazmali



metoddan foydalanishda ko'rgazmali qurollarning, topshiriqlarning o'quvchi yoshiga mos kelishini aniqlagan holda pedagoglarga taklif qilinishi kabilardan iborat. Belgilangan vazifalarni inobatga olgan holda, ularni bajarishga harakat qilishi, har bir vazifaga diqqat, e'tiborli bo'lish uni diqqat bilan o'rganish har bir pedagogning asosiy vazifasi sanaladi. Har bir pedagog, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik metodidan boshqa metodlari bilan birgalikda foydalanish, ta'lim samaradorligi oshirishga, o'quvchilarning bilimni oshirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va shu, asosida yurt kelajagini, manfaatini ta'minlashga, yordam beradi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali metodlarni qo'llanishning mazmuni va mohiyatini o'rganish va pedagogik omillarini aniqlash. Tadqiqot vazifalari: Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish asosida hozirgi vaqtda tarbiyaning umumiy metodlar, mazmuni va mohiyatiga qo'yiladigan talablarning didaktik asoslarini aniqlash.

Yan Amon Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida «Oltin qoida» ni ifodalagan: «O'quvchilar-deb yozadi u, - sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasida, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni-tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilish olishlari kerak... birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim». Yana bir qator sharq pedagoglari Xorazmiy, Beruniy, Farobiyar IX-XI asrlardayoq o'qitishda ko'rgazmalilik metodining ahamiyatini yuqori baholagan edilar. XVII asrga kelib ularning ko'rgazmali o'qitish haqidagi fikrlarini Ya.A.Komenskiy,

rus pedagogikasi otasi hisoblangan K.D. Ushinskiylar yanada rivojlantirishgan. Ushinskiyning fikricha, bolalar tashqi ko'rinish, rang, ovoz, sezish bilan fikrlaydigan bo'lgani uchun ta'limda ko'rgazmalilik ularning psixologik xususiyatlariga mos keladi deb yozadi. Rus psixologi L.V.Zankov ko'rgazmali qurollarni o'qitishning jonli, ta'sirli so'zi bilan har xil usulda birlashtirib dars berishning alohidaligini ilmiy dalillab berdi. Bunda olim kishining oliy nerv xizmatining ikkinchi signal sistemasining birligi ta'limotiga suyanadi. Ushinskiy ta'lim jarayonidagi ko'rgazmalilik bola bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosida bo'linishi ta'kidlanadi. Ushinskiy ko'rgazmalilik tushunchasiga suratlar, kolleksiyalar, modellar, jadvallar va boshqa ko'rgazmali qurollarini, biz ko'rib turgan olamdagi buyumlar va hodisalarni, shuningdek, bolaning turmush tajribasini va badiiy asarlardan aniq obrazlar orqali ifodalangan hayotiy voqealarni ham kiritgan. Ushinskiy ko'rgazmali ta'lim usulini mukammalashtiradi, suratlardan foydalanib, bolalarga hikoya qilib berish va bolalarning suratlarga qarab so'zlab berishlari usullarini asoslab bu usulning bir qancha aniq qoidalarini yaratadi. Ushinskiy tarbiyaning xalqchilligi g'oyasini maktabgacha tarbiya nazariyasiga asos qilib oldi, boshlang'ich ta'lim asoslarini va metodikasi ishlab chiqdi. Bu uning pedagogikani rivojlantirishdagi ulkan xizmatlardan biri bo'ldi. Ushinskiy boshlang'ich ta'lim ko'rgazmalilik rejasiga yozuv, o'qitish, rasm, qo'l ishlari, sanoq, hikoya, ashula gimnastika mashg'ulotlarini kiritadi. Ushinskiy didaktik o'qitish nazariyasining psixologik asoslarini o'sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi. Uning ta'limotida diqqat, iroda, xotira va hissiyotlarni tarbiyalash to'g'risida va bu psixik hodisalar to'g'risida qimmatli



ko'rsatmalar borligini ko'ramiz. Chunonchi, u har qanday ta'lim jarayonida shakllar yo'li bilan bolalarning faol diqqatini rivojlantirish, qanday qilib ongli xotirani tarbiyalash, takrorlash yo'li bilan o'quv materiallarini o'quvchilar ongida mustahkamlashni tavsiya qiladi. Takrorlash, deb hisoblaydi Ushinskiy «unutilgan narsalarni qayta fikrlash uchungina kerak emas, balki unutilgan qo'yish mumkinligining oldini olish uchun» zarurdir; yo o'qish ishida olga qo'yilgan har bir qadamda o'tilgan olimlarga tayanish kerak. Ushinskiy «Bilim olaman desang, takror qil» degan, qadimdan qolgan maqolni ta'limning o'zgarish qonuni deb hisoblaydi. «Takrorlash odatlarini mustahkamlash uchun ham har bir inson xotirasida qoldirishning umumiy qonunidir» deydi olim. Ya.A.Komenskiy ko'rgazmalilikni faqat buyum va qoidalarni ko'rib idrok emas, balki ularning inson sezgi a'zolariga ta'sir etadigan, inson idrok qiladigan bo'lishini talab etadi. U har bir narsani didaktika qonun-qoidalariga asosan, bolaga sezgilar orqali idrok qildirish, ya'ni ko'rib bo'ladigan narsalarni ko'rsatish bilan; eshitib bo'ladigan narsalarni eshittirish bilan, hidlarni hidlatish, ta'mini tatib ko'rish, ushlab ko'rish mumkin bo'lgan vositasi bilan idrok qildirishni tavsiya etadi.

Agar biron-bir narsani bir necha sezgi a'zolari orqali idrok qilish uchun bir necha sezgi a'zolarining ishga solish lozim. Ko'rgazmalilikni bolalarni buyumlar bir bevosita tanishtirish yo'li orqali amalga oshirish kerak. Ya.A.Komenskiy o'quvchilardagi o'qishga qiziqishini ularning bilimni o'zlashtirishlari uchun zaruriy shart deb hisoblaydi. U barcha vositalar bilan o'quvchilarda bilim olish ishtiyoqini uyg'otishni taklif etadi va shu masala yuzasidan aniq ko'rsatmalar beradi; o'quvchilarga o'rganilayotgan narsalarning

ahamiyatini, egallagan bilimlarining mohiyatini tushuntirish lozim, ularni rag'batlantirish, mashg'ulotning qiziqarli bo'lishiga harakat qilish lozim. Komenskiy fikricha, mashg'ulotlar shunday tashkil etilishi kerakki, oldin o'tilgan mavzu keyingi mavzuni o'rganishga yo'l ochib bersin, ya'ni oldin berilgan bilim uzviylikda, uning uzviy davomi bo'lishi kerak. Komenskiyning fikricha, har bir sinf o'quvchilari uchun maxsus darsliklar tuzilib, ularda fan asoslari muayyan tartibda bayon qilinishi lozim. Darsliklar aniq, tushunarli tilda yozilishi, tashqi ko'rinishi bolalarni qiziqtiradigan bo'lishi kerak. Komenskiy otalarni, xususan, onalarni o'z farzandlarining to'qligi to'g'risida tinimsiz g'amxo'rlik qilishga da'vat etadi va bolalarni parvarish qilish, ovqatlantirish, kiyintirish masalalari haqida ko'rsatmalar beradi.

Ma'lumki har bir o'qituvchi-pedagog o'z oldiga ta'lim-tarbiyani maqsad qilib qo'ygan ekan, o'z oldiga ma'lum bir usul, yo'llarni tanlab oladi. Bu usul va yo'llarni tanlashda o'qituvchining mahorati, qobiliyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi qanday usul va vositalarni tanlashi o'qituvchining bilimiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi qanday usul va vositalarni, metodlarni tanlamasin, ularning bolalar, o'quvchilar yoshiga mosligini inobatga olishi, unga ya'ni o'quvchilarga bu usulning qay tartibda o'tkazilishi, qo'llanilishi o'quvchilarga aniq qilib tushuntirish lozim. Dars vaqtida o'qituvchi pedagogikaning tamoyillaridan, metodlaridan, tushunarlilik, ilmiy, ko'rgazmalilik, ko'rsatmalilik, tizimlilik, bilimlarni o'zlashtirishi kabi usul va metodlaridan foydalanishi mumkin. Bu metod va usullardan foydalanishning metod va usullarning ichida ko'rgazmalilik metodi ahamiyatli hisoblanadi. Ko'rgazmalilik qurol va tarqatma materiallarni tayyorlayotganda ularni nima



maqsadda tayyorlayotgani, qanday shakl va mazmunda yetkazish ma`qul ekanini hamda

ularni tayyorlash qoidalariga rioya qilishni yoddan chiqarmaslik kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch». I.Karimov. Toshkent. 2008 yil
2. «O`zbekiston buyuk kelajak sari» I.Karimov. Toshkent. 2009
3. «Pedagogika tarixi». A.Zunnunova, B.To`xliev, X.Ma`sudov. Toshkent. 2002 yil
4. «Pedagogika». R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xolikberdiev. Toshkent. «O`qituvchi».
5. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/>